



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

DRAMALARDA AYOL VA ERKAKLARGA XOS NOVERBAL VOSITALAR

Masharibova Roxatoy Ozadovna,

Xorazm Ma'mun Akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi, Xiva shahar.

masharibovarohatoy@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183550>

Annotatsiya: *Maqolada ayol va erkaklarga xos noverbal vositalarning dramatik asarlarda qo'llanishiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan, unda mustaqillik davrida yaratilgan asarlarning, xususan, dramalarda ayol va erkaklar nutqining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *noverbal vositalar, ochiq qo'llar, tana harakati, yuz ifodalari, jestlar, mimika, intonatsiya.*

Kirish. Verbal tillar madaniyatga ko'ra o'zaro ajralib turganidek, muayyan millatning noverbal tili ham boshqa millatning noverbal tilidan farqlanadi. Qayd qilish joizki, nisbatan keng tarqalgan jest yaqinlashish yoki taktik aloqadir. Teginish, eng avvalo, muloqotdagi sherikka nibatan hissiyotlarni ifodalaydi. Qo'pol va og'riqli aloqa agressiya va tazyiq bilan kechadi. Mayin va og'riqsiz aloqalar sherikka nisbatan ishonch va simpatiyadan dalolat beradi. "Nolisoniy axborotni qabul qilishning sezilarli darajada noerkinligi va g'ayriixtiyoriyligidan (g'ayrishuuriydan) uning retsiyanti (bu ham sezilarli ongsiz darajada) murojaatning lisoniy mazmunidan ko'ra ko'proq nolisoniy mazmuniga ishonishga moyildir.

Asosiy qism. Har qanday uchrashuv va xayrlashuvning bevosita atributi qo'l siqishdir. Ushbu holat axborotga boy bo'lishi mumkin, ayniqsa, uning intensivligi va davomiyligi. Quruq qo'llar bilan amalga oshirilgan juda qisqa muddatli va yengil qo'l siqish befarqlikdan dalolat berishi mumkin. Aksincha, davomli qo'l siqish va juda nam qo'llar hayajondan dalolat beradi. Biroz cho'zilgan va tabassum hamda iliq nigoh bilan kechuvchi qo'l siqish do'stona munosabatni namoyon etadi. Agar qo'l siqilganda boshqa odamning qo'li to'liq qamrab olinsa va kaft pastga qarasa, bu hukmron qo'l siqishdir. Agar kaft yuqoriga qaratilib, qo'l uzatilsa, bu bo'ysunuvchi qo'l siqishdir. To'g'ri, lekin bukilgan qo'l bilan qo'l siqilsa, hurmatsizlik belgisidir. Uning asosiy ma'nosi – masofani saqlash va tengsizlik haqida eslatishdir. Barmoq uchlari bilan qo'l berib so'rashish muloqotdagi sherikni o'ziga qulay masofada saqlash xohishini anglatadi. Ikki qo'llab qo'l siqish samimiylik va tuyg'ularning chuqurligini ifodalaydi. Qo'l va tana harakatlari inson haqida ko'p ma'lumotlarni bera oladi. Birinchidan, ularda inson organizmi holati va bevosita emotsional reaksiyalar namoyon bo'ladi. Bu inson temperamenti haqida xulosa qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, reaksiyalar, tana holati va harakatlari inson xarakterining ko'plab



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qirralarini ifodalaydi: o'ziga ishonch, qobiqqa o'ralganlik yoki erkinlik, ehtiyotkorlik yoki keskinlik. Uchinchidan, holat va jestlarda inson tomonidan o'zlashtirilgan madaniy me'yorlar namoyon bo'ladi. To'rtinchidan, jest va holatga shartli ramziy ma'nolar yuklatiladi. Shu tariqa ular axborotni aniqroq uzatish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ochiqlik jestlari samimiylilik va ochiqchasiga gapirish xohishidan dalolat beradi. Belgilarning ushbu guruhiga "ochiq qo'llar" va "pidjak tugmalarini yechish" kabi jestlar kiradi.

Shabnam uyga kirib o'ralgan tugunni olib chiqadi.

Shabnam: *Ena, bu nima?*

Momo: *O'limlikka yig'ganim. Hammasini ol!*

Shabnam: *Yo'q, ena, men bu pulni ololmayman... Axir...*

Momo: (Yuzida qat'iyatli tabassum bilan qo'lini sahnaga ishora qilib) *Xudoga shukur, qo'ni-qo'shni, mahala-ko'y bor! El-yurt bor! O'ligim ko'chada qolmaydi, bolam, meni norozi qilmayin desang, shu pulni olib bugunoq qizingga oyoqkiyim, ust-bosh, o'zingga ham nima kerak bo'lsa sotib ol, bolam...*

Shabnam: (Yig'lab kampirning quchog'iga otiladi) *Enajon. Enajonim. Hali ko'rasiz, bu kunlar ham o'tadi, ena... Sizni yaxshi ko'raman, enajon...*

Momo: (Sukut saqlab) *Menga qara, kel, shu tomorqamizning 10 sotixini Quدرات mijg'ovga berib yuboraylik... Bo'lmasa Quدراتdan qutulolmaymiz...*

"*Uyga kirib o'ralgan tugunni olib chiqadi*" – bu harakat Shabnamning Momoga nimadir sodir bo'layotganini tushuntirishga tayyorligini ko'rsatadi. U tugunni olib chiqish orqali muhim bir narsani baham ko'rmoqchi yoki biror muammoni hal qilmoqchi ekanligini bildiradi.

"*Yo'q, ena, men bu pulni ololmayman... Axir...*" – bu so'zlar bilan birga Shabnamning mimikasi va intonatsiyasi uning ichki kurashini, noqulaylikni va aybdorlik hissini ifodalashi mumkin. Uning harakatlari va so'zlari orqali u Momoga nisbatan hurmat va ehtiyotkorlikni bildiradi.

"*O'limlikka yig'ganim. Hammasini ol!*" – Momoning bu so'zlari va uning yuzidagi qat'iyatli tabassum uning Shabnamga nisbatan samimiyati va qayg'usini ko'rsatadi. U Shabnamga yordam berishga tayyorligini va bu yordamni majburiyat sifatida emas, balki samimiy istak bilan qilishini bildiradi.

"*Yuzida qat'iyatli tabassum bilan qo'lini sahnaga ishora qilib*" – bu harakat Momoning qat'iyatini va Shabnamga nisbatan g'amxo'rlikni ko'rsatadi. Uning qo'lini sahna tomon qaratishi uning Shabnamga nisbatan qandaydir mas'uliyatni his qilishini va uni himoya qilish istagini bildiradi. Shabnamning tugunni olib chiqishi va



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

pulni qabul qilishdan bosh tortishi esa uning Momoga nisbatan hurmati va noqulaylik hissini bildiradi.

Bu tahlil orqali noverbal vositalar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni anchayin chuqurroq va aniqroq ifodalashi mumkinligi ko'rsatilgan.

“Ochiq qo‘llar” jestida suhbatdosh siz tomonga qo‘l kaftlarini yuqoriga ko‘targan holda uzatadi. Mazkur jest suhbatdosh tomonga borish va ish aloqasini o‘rnatish xohishini namoyish etadi.

A.K.Mixaylskaya o‘zining “Rus Suqroti” (“Русский Сократ”) asarida rus notig‘iga xos, biroq boshqa tilda gapiruvchilarga xos bo‘lmagan bir qancha imo-ishoralarni misol tariqasida keltiradi:

1. Ochiq qo‘l jesti axborotni berish ramzi.
2. Yopiq qo‘l jesti noxushlik, ko‘ngilsizlik ramzi.
3. Bir mushtga tugilgan barmoqlar yig‘indisi do‘q-po‘pisa yoki bir qancha g‘oyalarning yig‘indisini ifodalaydi va hokazo^[1].
4. Bu – tana muloqoti (tana tili, badan tili) sifatida fikrlar, his-tuyg‘ular, emotsiyani ongli ravishda uzatadigan tananing turli qismlarining pozitsiyalari va harakatlarning alomatlari, ya’ni yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavda holatlari (pozalar), yurish va boshqalarni ifodalaydi^[2].

Shu ma’noda “*Yuqoriga ko‘tarilgan bosh barmoq*”.

Amerika, Angliya, Avstraliya va Yangi Zelandiyada yuqoriga ko‘tarilgan bosh barmoq quyidagi 3 ma’noga ega bo‘ladi:

- 1) yo‘lda yo‘l-yo‘lakay mashina ushlashda;
- 2) “hammasi joyida”;
- 3) bosh barmoq juda tezlik bilan yuqoriga ko‘tarilsa, bu uyatli so‘kinish yoki “buning ustiga o‘tir” degan ma’noni anglatadigan haqorat belgisiga aylanadi.

Ayrim mamlakatlarda, masalan, Gretsiyada ushbu jest “ovozingni o‘chir”ni anglatadi, shunga ko‘ra Gretsiya yo‘llarida mashina ushlamoqchi bo‘lgan amerikalikni tasavvur qiling!

Italiyaliklar 1 dan 5 gacha sanaganida ushbu jest “1”ni anglatadi, shu payt ko‘rsatkich barmoq “2”ni anglatadi. Amerikaliklar va inglizlar sanaganlarida esa ko‘rsatkich barmoq “1”ni, o‘rta barmoq “2”ni, bosh barmoq esa “5”ni ifodalaydi.

“*Ko‘tarilgan bosh barmoq*” jesti boshqa jestlar bilan uyg‘unlikda hukmronlik va ustunlikni anglatishi, shuningdek, kimdir sizni “majaqlab tashlamoqchi” bo‘lgan vaziyatni ifodalash uchun anglatishi mumkin. Quyida ushbu jestni shunday o‘ziga xos kontekstlarda ko‘rib chiqamiz.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bunday paralingvistik vositalar dastlab 1644-yili Angliyada D.Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo‘lning tabiiy tili va xronologiyasi” nomli asarida tadqiq qilingan^[3]. Shu o‘rinda A.Nurmonov bir tildan ikkinchi tilga ma‘lum matnni o‘girishda faqat shu xalq (millat) tilini bilish bilan kifoyalanib qolinmay, balki ularning o‘zlariga xos muomala madaniyati, imo-ishoralarini bilish kerakligini ta‘kidlagan edi^[4]. Jumladan, olim “O‘zbeklarda substitutiv funksiya bajara oladigan imo-ishoralar har qanday informatsiyani ifodalamaydi; ularning vazifa doirasi nihoyatda cheklangan; asosan, kundalik og‘zaki aralashuv uslubi bilan bog‘liq”, deb uqtiradi^[5].

M.Saidxonov “Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar” nomli kitobida kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma‘lum axborotni uzatish vositalaridan bo‘lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozda turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat‘iy nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini bajarishini ta‘kidlaydi^[6].

Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, noverbal muloqot tilshunoslik fanining bir qismi sifatida tadqiq etilib, komponentlar soni quyidagicha:

1. Paralingvistika (*noverbal muloqotning ovoz kodlari*);
2. Kinesika (*imo-ishora harakatlari*);
3. Okuleksika (*ko‘z harakatlari*);
4. Auskultarsiya (*insonlarning ovoz ohangi*);
5. Gaptika (*inson gavda qismiga teginish suhbat*);
6. Gastika (*oziq-ovqat va ichimliklar belgisi yoki ta‘m bilish*);
7. Olfaksiya (*hid bilish orqali muloqot*);
8. Proksemika (*muloqot maydoni*);
9. Xronemika (*muloqot vaqti*);
10. Sistemologiya (*insonni o‘rab turgan atrof-tevarak*^[7]).

Muloqot qilganda ikki tomonlamalikka (hamjihatlikka) intiladilar va agar u ta‘minlanmasa, noqulaylik (diskomfort)ni his qiladilar.

Xulosa. Ma‘lumki, inson fikri Bu – tana muloqoti (tana tili, badan tili) sifatida fikrlar, his-tuyg‘ular, emotsiyani ongli ravishda uzatadigan tananing turli qismlarining pozitsiyalari va harakatlarning alomatlari, ya‘ni yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavda holatlari (pozalar), yurish va boshqalarni ifodalaydi. Shuni aytish joizki, noverbal verbal vositalar kommunikantning fe‘l atvori, ko‘rinishi, ichki dunyosi, sifatlari, ishonchi, jur‘ati kabilarni ham birgalikda ifoda qiladi. Harakatlar, yurishlardan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

yoqimli tashqi qiyofani yaratish uchun nisbatan ma'qulrog'i o'ziga ishongan odamning yurishidir. Bu o'zgalarda ishonch tasavvurini uyg'otadi va qomat to'g'ri bo'ladi. Zero, to'g'ri qomat insonni xushbichim qiladi. Aksincha, qomatingiz egilgan bo'lsa, ko'rimsizlikni va o'ziga ishonchsizlikni ifodalaydi. Noverbal vositalarni verbal vositalar bilan parallel holatda samarali foydalanish suhbatdoshning e'tiborini so'zlanayotgan nutqqa qaratish, suhbat mazmunini teran anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Михальская А.К. Русский Сократ: лекции по сравнительно-исторической риторике. – Москва: Добросвет, 1996. – С. 18.
2. Конечкая В. Социология коммуникации. – Москва: Междунар. ун-т бизнеса и управления, 1997.;
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012.;
4. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008.; Алиев И. Педагогика ва психология. – Тошкент, 2012.
5. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.212.
6. Крейдлин Г. Невербальная семиотика. – Москва: Новое литературное обозрение, 2002. – С.22.
7. Алиев И. Педагогика ва психология. – Тошкент, 2012.